

INGLIZ TILINING GLOBAL KOMMUNIKATSIYA TILI SIFATIDA  
SHAKLLANISHI

**Sharipova Sarvinoz Sayfiddin qizi**

*SamDCHTI Ingliz tili o'qituvchisi*

**Bobomurodova Shahlo**

*SamDCHTI 1-kurs talabasi*

*shahloxon37@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz tilining zamonaviy dunyodagi globallashuv jarayonida universal aloqa vositasi sifatidagi o'rni va ahamiyatini o'rganadi. Xususan, uning ilm-fan va internet-muhitidagi hukmronligi, tilning xalqaro muloqot, ta'lim, texnologiya, biznes sohalaridagi iqtisodiy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, xalqaro til, texnologiya, raqamli ta'lim.

**Abstract.** This article examines the role and importance of the English language as a universal means of communication in the process of globalization in the modern world. In particular, its dominance in science and the Internet environment, the economic potential of the language in the fields of international communication, education, technology, and business are analyzed.

**Keywords:** English, international language, technology, digital education,

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili dunyoning eng ko'p qo'llaniladigan tillaridan biriga aylangan. U nafaqat aloqa vositasi, balki biznes, ta'lim, texnologiya va madaniyatlararo muloqotning kaliti hisoblanadi. Ingliz tilini bilish zamonaviy inson uchun nafaqat afzallik, balki zaruradir. Ushbu maqolada ingliz tilining global til sifatida shakllanishiga ta'sir etgan omillar va uning turli sohalardagi ahamiyati yoritilgan.

**Ingliz tilining xalqaro aloqa tili sifatidagi o'rni.** Dunyoda 1,5 milliardga yaqin odam ingliz tilida gaplasha oladi, ularning 375 millioni uchun bu ona tili hisoblanadi (Ethnologue, 2023). YUNESCO, Yevropa Ittifoqi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy tili ingliz tili hisoblanadi. Xalqaro miqyosdagi anjumanlar, sammitlar va diplomatik uchrashuvlarning aksariyati ingliz tilida o'tkaziladi. Bu ingliz tilini turli madaniyatlar o'rtasida bog'lovchi universal tilga aylantiradi. Hozirgi kunda, ayrim xususiy va Prezident maktablarida o'quv mashg'ulotlari ingliz tilida yuritiladi.

**Ta'lim va ilm-fan sohasidagi ahamiyati.** Zamonaviy akademik nashrlarning aksariyat qismi, jumladan, ilmiy maqolalar va qo'llanmalar, ingliz tilida taqdim etiladi. Scopus ma'lumotlar bazasiga ko'ra, 2022-yilda nashr etilgan ilmiy maqolalarning 95% ingliz tilida yozilgan. Dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalari, masalan, Harvard, Oksford, MIT, dars jarayonlarini asosan ingliz tilida olib boradi. Bu esa ingliz tilini bilim olish va tarqatishning asosiy vositasi qiladi. Bundan tashqari, ingliz tilini bilish darajasini

rivojlantiruvchi bir qancha ilovalar ham mavjud, jumladan, duolingo, ibrat farzandlari, ielts speaking. Google yoki You tube platformalarida ingliz tilida qidirish orqali yaxshiroq va aniqroq ma'lumot olish mumkin. Canva palformasida ingliz tilida qidirish orqali chiroyli dizaynlar topish mumkin.

**Texnologiya va internet muhitidagi hukmronlik.** Texnologik sohalar, xususan, dasturiy ta'minot, sun'iy intellekt va internet texnologiyalari asosan ingliz tiliga tayangan holda rivojlanmoqda. Internet tarkibidagi kontentning 60% dan ortig'i ingliz tilida yaratilgan (W3Techs hisoboti). Dasturlash tillarining sintaksisi va texnik hujjatlar ham asosan ingliz tilida yoziladi. Bu ingliz tilini zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'laydi. Bundan tashqari, ingliz tilini bilish turli xil mamlakatlarda sayohat qilayotganda oson muloqat qilish imkonini beradi.

**Biznes va iqtisodiyotdagi o'rni.** Ko'pgina transmilliy korporatsiyalar, jumladan, Google, Apple va Microsoft, o'z faoliyatida ingliz tilidan foydalanadi. Xalqaro shartnomalar, savdo bitimlari va korporativ muloqot jarayonlari asosan shu tilda olib boriladi. EF English Proficiency Index ma'lumotlariga ko'ra, ingliz tili darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar YaIM darajasi ham yuqori bo'ladi. Ingliz tilini biluvchi mutaxassislarning ish topish imkoniyatlari kengroq, ularning maoshi o'rtacha 30-50% yuqori bo'lishi mumkin.

**Madaniyat va ommaviy axborot vositalarining ta'siri.** Ko'plab madaniy mahsulotlar filmlar, seriallar, musiqalar va ijtimoiy tarmoqlar kontenti ingliz tilida yaratiladi. Hollywood, Billboard chartlari va global brendlar ingliz tilini butun dunyo bo'ylab targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu odamlarga global madaniyat bilan bevosita tanishish va unda faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki global ta'lim, texnologiya, biznes va madaniyatni birlashtiruvchi kuchli platformadir. Uni bilish shaxsga nafaqat yangi bilimlar va ko'nikmalarni egallash, balki butun dunyo bilan samarali hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Ingliz tili – bu zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat kalitidir. Ingliz tilini bilgan inson boshqa chet tillarini o'rganishda ayrim muammolarga duch kelmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal, D. English as a global language. Cambridge University Press. 2023. – 212 p.
2. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education. 2007. – 448p.
3. Richards, J. C., Rogerds, T. S. Aproaches and methods in Language Teaching. Cambridge University Press. 2014. - 7 p.
4. Biritish Council. English Language education in the digital age. 2021. - 51 p.

5. Ergasheva, M. Ingliz tilining xalqaro til sifatida paydo bo'lishining madaniy asoslari. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7876387>

